

EKSPORT GEOGRAFIYASI KENGAYMOQDA



Yoz fasli boshlanishi bilan bog'larda meva, paykallarda sabzavot-polizlar pishishadi. Dehqonlar erta bahordan qilgan mehnatlarining rohatini ko'radigan davr boshlanadi.

Yozyovon har sohada ilgarilab bormoqda. Dehqonchilik mahsulotlarini eksporti bo'yicha ham ishlar jadallik bilan ketmoqda.

Tumanimizda o'tgan 5 oy davomida "EXPORT ECO FRESH FRUITS" korxonasi 311 tonna, qiymati 298.6 ming dollar, "NUMA-FARG'ONA-FRUIT" korxonasi 274 tonna, qiymati 486.4 ming dollarlik, "EXPORT INDUSTRY" korxonasi 47 tonna, qiymati 375 ming dollarlik maxsulotlarini eksport qilgan.

Tumanimiz uchun yanvar - iyun oylari uchun 1 574.7 ming dollarlik eksport prognoz ko'rsatkichi belgilangan bo'lsa hozirda jami 1 160.2 ming dollarlik eksport qilingan. Marra yaqin.

Avvallari qo'shni Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston va shu kabi davlatlarga eksport qilingan bo'lsa, hozirda Eron, Misr va YEvropa davlatlariga yozyovonlik dehqonlar yetishtirgan mahsulotlari yetkazib berilmoqda.

Yozyovon tumani hokimligi axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-06 21:00:05